

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘l yozma huquqida

UDK: 336.5:330.3 (575.1)

QO‘SHMANOV JASUR NARIMON O‘G‘LI

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI
SOLIQLAR MEXANIZMI ORQALI RAG‘BATLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH

5A230603 - “Investitsiyalarni boshqarish” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi

Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n, dotsent Alimov I.I.

TOSHKENT 2019

Dissertatsiya ishida O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi islohotlar va tijorat banklarining investitsion faoliyatini soliqlar mexanizmi orqali rag'batlantirish mazmuni, maqsadi hamda zaruriyati ochib berilgan. Tijorat banklarini investitsion faoliyatini soliqlar mexanizmi orqali rag'batlantirish amaliyotini amaliy ma'lumotlar asosida tahlil etilgan va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

The enhancements in banking system and the reason and nature of taxing system of commercial banks of the Republic of Uzbekistan are described in the dissertation thesis. The procedure of taxing system of commercial systems are analyzed on the base on practical dates. The practical recommendations on the base of scientific proves of enhancement the system were developed.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Bank ishi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 7 sonli bayonnoma « 10 » ulohida 2019 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n. dots. I.I. Alimov

 " _____ "

Magistrant: J.N. Qo'shmanov

 " _____ "

«Himoyaga tavsiya etiladi»

«Bank ishi» kafedrası

mudiri PhD Duskobilov U.Sh.

« 03 » ulohida 2019 yil.

Himoya 2019 yil « 01 » ulohida soat « 14 ⁰⁰ »da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I-BOB	TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	10
1.1	O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi islohotlar va uning o'ziga xos xususiyatlari	10
1.2.	Tijorat banklarining investitsion faoliyatining nazariy asoslari	20
1.3.	Tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmining mazmuni, maqsadi va zaruriyati	25
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar	32
II-BOB	TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISH VA ULAR BO'YICHA IMTIYOZLARNI QO'LLASH AMALIYOTINI TAHLILI	34
2.1	Tijorat banklari investitsion faoliyatidan to'laniladigan foyda solig'ini to'lash tartibini tahlili	34
2.2.	Tijorat banklari tomonidan to'laniladigan boshqa soliqlar va majburiy ajratmalarning tahlili	52
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	59
III-BOB	IQTISODIYOTNING LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	61
3.1.	Tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'i mexanizmining zamonaviy holati va undagi mavjud muammolar	61
3.2.	O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsion faoliyatini soliqlar mexanizmi orqali rag'batlantirishni takomillashtirish yo'llari	66
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	70
	XULOSA VA TAKLIFLAR	72
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	75
	ILOVALAR	78

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Tijorat banklari milliy iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarning tijorat aylanmasining faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydilar. Ular xo'jalik faoliyati ishtirokchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida bank tizimining to'lov dastaklari yordamida hisob-kitoblarni amalga oshiradilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bank tizimi milliy iqtisodiyotning likvidligini manbai hisoblanadi va ular xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini doimiy hamda to'xtovsiz amalga oshirishlarini ta'minlaydilar. Shuning uchun samarador bank tizimisiz milliy iqtisodiyotning muntazam faoliyat ko'rsatish imkoniyati cheklanadi. Har bir tijorat bankining moliyaviy barqaror faoliyati ko'rsatishi nafaqat alohida olingan tijorat banki uchun, balki butun milliy bank tizimi va iqtisodiyotning barqarorligi uchun zarurdir.

Respublikamiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarini yaratishga qaratilgan o'zgarishlarning barqaror borayotganligi kuzatilmoqda. Mustaqil moliyaviy siyosatni respublikaning byudjet tizimini mustahkamlash, byudjet daromadlarining to'ldirilishini ta'minlaydigan va amaliy faollikni rag'batlantiradigan izchil soliq siyosatini o'tkazish, shuningdek korxona va tashkilotlarning, xususan tijorat banklarining ham moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, ularning tadbirkorlik va sarmoyadorlik faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan shakllantirish mo'ljallanmokda.

Tijorat banklarining barqaror faoliyat ko'rsatishi moliyaviy faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Banklarning moliyaviy faoliyati natijalarini to'g'ri aniqlash bir qator omillarga bog'liqdir. Xususan, bank faoliyatidan olinadigan soliqlar va majburiy to'lovlar masalasi keng munozaralidir. Bularga qo'shimcha qilib, shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida banklarga kredit faoliyatini yanada kengaytirish va ularni mamlakat moliya bozoridagi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bir qancha imtiyoz va majburiyatlar yuklatildi. Iqtisodiyotda bozor munosabatlarini modernizatsiyasi rivojlanib borayotgan bir paytda tijorat banklarining foydalarini shakllantirish va ularning faoliyatini tartibga solib turish masalalari alohida kash etadi. Tijorat banklari foydalarini shakllantirish,